# MEDIATEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QUVCHILARDA MILLIY G'URUR, VATANPARVARLIK KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**_Mamajonov L.V._**
*TAFU tadqiqotchisi*

**Tayanch so'zlar:** interfaol usullar, mediatexnologiya, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash.

**Ключевые слова:** интерактивные методы, медиатехнологии, информативная, аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязанность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение.

**Key words:** interactive methods, media technology, informative, audiovisual active citizenship position, responsibility, obligation, legal awareness and culture, deep worldview.

Jahonda globallashuv jarayoni tezlashayotgan bir paytda tarbiya masalasi, u bilan bog'liq qadriyatlarni asrash, ularni takomillashtirish va o'qitish masalalari dolzarb bo'lib, bugungi kunda tarbiya ta'limiga doir turli interfaol usullar, yangi pedagogik texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Ijtimoiy–gumanitar fanlarni rivojlantirishda Tarbiya fanini o'qitishdan boshlash, ko'nikmalarni hosil qilishda ta'limning ahamiyatini nazarda tutish masalasi ham o'z qimmatini yo'qotmagan, bu borada nazariy ma'lumotlarni taqdim etish, o'quvchilarni ta'lim jarayonida darbiyalashga doir qoidalarni taqdim qilish bo'yicha ham turli qarashlar mavjud. Darsliklarda keltirilgan o'quv materiallar o'quvchida mantiqiy to'g'ri fikrlash, ko'nikmalarini tez va qulay rivojlantirichiga imkon yaratadi. Xalqaro tajribada jumladan, 10-11 sinf o'quvchilariga faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida o'rgatilishda, qiyinchilik bo'lmaydi. Chunki 10-11 sinf quyi sinfda ham bu fanni bosqichma-bosqich o'tib kelyapti. Dunuo ta'lim muassasalarida tarbiya nazariyasi va amaliyotida faol milliy g'urur, vatanparvarlik ruhida mediatexnologiyalar asosida komretensiyaviy yondashuv negizida metodik muammolar ilmiy tahlil etilishi o'quv adabiyotlarining yangi avlodiga metodologik, didaktik, mantiqiy yaxlitlik, amaliyotga bog'liqlik kabi qo'yiladigan talablarni takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Keyingi yillarda

mamlakatimizda ham "Tarbiya" fanini oʻqitish ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish metodik yondashuvga asoslandi. Umumiy oʻrta ta'lim tiziminini ilmiy–metodik jihatdan takomillashtirishda ta'lim jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanishning me'yoriy–huquqiy asoslari yaratilgan. AQSh, Finlyandiya, Rossiya, Janubiy Koreya, Yaroniya, Italiya, Turkiya, singari davlatlarning ta'lim muassasalari faoliyati oʻrganilib, ularning ilgʻor tajribalari asosida oʻqitish tashkil etilmoqda. Natijada ijtimoiy–faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasi ehtiyojlari, fan–texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari asosida ta'lim–tarbiya jarayonlarida foydalanilayotgan darsliklarning yangi avlodini yaratish va ulardan amalda foydalanish mexanizmini takomillashtirish yanada kengroq ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'lim sohasining oldida "...maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilim va tajribasini xalqaro darajaga olib chiqish, oliy oʻquv yurtlarining QS va THE xalqaro reytinglarga kirishi uchun maqsadli dasturni ishlab chiqish" [1]. Asosiy va yetakchi vazifalar qilib belgilangan. Shuningdek, "yuqori sinflarda berilayotgan ta'lim va tarbiya sifati, oʻqituvchilarning bilimi va mahoratini talab darajasida deb boʻlmaydi. 2023- yildan maktab ta'limini xalqaro ta'lim dasturlari asosida butunlay isloh qilishni boshlaymiz. Bu ishlarni tizimli yoʻlga qoʻyish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilgʻor ta'lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkil qilinadi. Milliy oʻzligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi boʻlgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi" O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona toʻgʻri yoʻlidir!" mavzusidagi zamonaviy darsliklar koʻrgazmasida: "XXI asr kishisi uchun eng zarur boʻlgan o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish boʻyicha ishlab chiqilgan (kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) koʻnikmalar, oʻquvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot koʻnikmalarini shakllantirish" masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

"Darsliklar quruq ma'lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki oʻqish-yozishni oʻrgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali oʻquvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur boʻlgan hayotiy koʻnikmalarni ham oʻrganishi" zarurligini ta'kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda oʻqituvchilar majburiyatlari haqida "...bugun darsliklar oʻzgaryapti. Shunga yarasha oʻqituvchilar ham oʻzgarishi kerak" [1]., - degan fikrlari tarbiya fani oʻqituvchilarini tayyorlash jarayonida yana ham katta mas'uliyatni talab qiladi. Yuqoridagi talablardan kelib chiqib, yangi avlod darsliklarini yaratish talablari asosida tarbiya oʻqitish metodikasi ham kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida o'quvchilarda

ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish ko'zda tutilmoqda. Tarbiya boshqa fanlarga integratsiya qilingan holda o'qitiladi.

Tarbiya fanini o'qitishga qo'yilgan aniq malaka talablari asosida mantiqiy fikrlash, kreativ yondashish, o'qish, tinglab tushunish ko'nikmalarining metodik imkoniyatlarini yanada rivojlantirish bugungi kun uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Zero,"Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1].

Shu ma'noda umumiy o'rta ta'lim tizimida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasini o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish orqali o'quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni, xususan, sog'lom turmush tarziga rioya qilib to'g'ri yashash ko'nikmasini, hamda tarbiyaviy tuchunchalarni takomillashtirish zarurati mavjud. Tarbiya fani o'ziga xos mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish metodik yondashuvlarga ega bo'lib, hozirga qadar mazkur muammo nazariy–amaliy jihatdan tadqiq etilmagan.

2018 yil 25 yanvardagi PF–5313–son "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb–hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish shora–tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2022–yil 28–yanvardagi "2022–2026–yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi RF 60–sonli, O'zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2022–yil 11–maydagi "2022–2026–yillarda xalq ta'lim ini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi RF–134–son, O'zbekiston Resrublikasi Rrezidentining 2019–yil 29–arreldagi "O'zbekiston Resrublikasi xalq ta'limi tizimini 2030–yilgasha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi RF–5712–son va 2020–yil 27–fevraldagi "Redagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish shora–tadbirlari to'g'risida"gi RQ–4623–son Qarorlari, 2022–yil 20–dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020–yil 6–iyuldagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma–bosqich amaliyotga joriy etish shora–tadbirlari to'g'risida" 422–sonli qarorida hamda ushbu faoliyatga oid boshqa me'yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur metodologik g'oyalar asosidan kelib chiqib aytish mumkinki, metodik ta'lim jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablarida 10–11-sinf o'quvchilarini "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasida ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish ilmiy–nazariy

jihatdan manzilliligi, tizimliligi va metodik ta'sirchanligini ta'minlash, targ'ibot–tashviqot ishlarini shaklan va mazmunan boyitish hamda bu jarayonga zamonaviy pedagogik usullarni joriy etish maqsadida innovasion mexanizm zaruriyatining mavjudligi, shuningdek, ta'lim –tarbiya jarayonini tashkil etishning birinchi va eng muhim qonuniyati uning mediatexnologiyalar muhitning ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liqligidadir Demak, o'qituvchi mediatexnologiyalar, pedagogik ilmiy nazariyalar hamda konsepsiyalar muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'lishida Tarbiya" fanini o'qitish metodikasini dasturiy ta'lim vositalari asosida ilmiy–nazariy jihatdan takomillashtirishda muhim pedagogik va metodik ahamiyat kasb etadi. Ta'lim – tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali boshqarishni ta'minlashdan iboratligi Abduqodirov A.A. [16], S.T.Turg'unov[67], R.X.Jo'raev [35], Pirnazarova A., B.X.Xodjaev, U.Sh.Begimqulov, N.A.Muslimovlar tomonidan ta'kidlangan. Gershinskiy B.S., A.N.Danilov, A.V.Xutorskoylar ta'lim jarayonida tarbiya funksiyalarini amalga oshirish va maqsadga erishish metodlarini alohida ko'rsatgan. M.Quronov, O.Musurmonova, D.Ro'ziyeva, B.Xodjaev., I.I.Raximova., Sh.Abdullayeva., Sharipov., Qosimov F.M., Qo'chqorova F.M., Kurbanniyazova Z.Q., Axmedov Y.O., Rasulova F.F., B.Ma'murov., Vaxobov M.M., Maxmudov M.X., Maxkamov U.I.lar tomonidan o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida tarbiya fanini o'qitishda metodik jarayonini tashkil etishn, pedagogik shart–sharoitlari tahlilga tortilganda, ma'lum bo'ldiki ta'lim jarayonining asosi uch maqsadga qaratiladi ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlantiriuvchi maqsad asosida metodik amalga oshiriladi, o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda samarali boshqarishni ta'minlashdan iboratligi D.Ro'ziyeva tomonidan ta'kidlangan [10:29].

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10–11 sinflarida tarbiya fani o'quv jarayonini tashkil qilish, tarbiya fanini o'qitishga doir me'yoriy hujjatlar, o'quv–metodik va didaktik ta'minot darajasi, pedagogik shart–sharoitlarini tizimli tahlil qilish orqali aniqlashtirish hamda umumiy o'rta ta'lim tizimida "Tarbiya" fanini o'qitishning bugungi holatini o'rganish va uning tarbiya ta'limida tutgan o'rnini belgilash muhim ahamiyatga ega.

"Tarbiya" fanini o'qitish tizimiga oid o'quv materiallarining DTS hamda dastur talablariga mosligini qiyosiy o'rganish, shuningdek, ularni o'qitish bilan bog'liq muammolarning sabablarini aniqlash va yeshmilariga doir tavsiyalar berish, hamda tarbiya fanini o'qitish metodikasini o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida tashkiliy–tuzilmaviy komponentlariningdidaktikimkoniyatlarinirivojlantirish,10–11–sinfo'quvchilarida

ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida o'qitish jarayonida qaysi o'quv materiallarini faqat o'qib tushunib olishlari va qaysilarini qat'iy yoddan bilishlarini aniqlash, tarbiya fanini o'qitishda qanday metod, usul va texnologiyalardan foydalanish muhimligini aniqlash, o'quvchilarda milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar integratsiyasi asosida mustaqil, mantiqiy, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning mazmun, usul, vositalari ishlab chiqishni takomillashtirish hamda tarbiya fanini o'qitish, o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish, metodik baholash mezonlarini ishlab chiqish va pedagogik tajriba–sinovishlarinio'tkazishhamda olingan natijalarni matematik–statistikjarayoni hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida, uzviylik va izchillik tamoyillari asosida o'qitishning (multimediya, elektron ilova, virtual namoyish va laboratoriya) dasturiy ta'minot komponentlari vositasida o'quvchilarning raqamli, umumpredmet kompetensiyalarining rivojlanganlik ko'rsatkichlari evristik yondashuvlar orqali aniqlashtirilgan hamda umumiy o'rta ta'lim tizimida "Tarbiya" fanini o'qitishda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishda dasturiy ta'lim vositalarini yaratishning ilmiy metodik, texnik talablari ishlab chiqish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fanining "10–11 sinfiga" doir mashg'ulotlarini o'tkazishda milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida funksional imkoniyatlarini o'quv jarayoni bilan amaliy integratsiyalashga qaratilgan (hodisalarni 3D formatda kuzatish, tajribalar o'tkazish, jarayonlarni metodik) hamda o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishni, metodik bilishni, hissiy bilishga asoslangan deduktsiyadan foydalanish, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va umumlashtirish, kuzatish, taqqoslash, qiyoslash o'quv topshiriqlari ishlab chiqish orqali o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida o'quv–metodik ta'minot mazmunan rivojlantiriladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish metodikasi (berilgan matnlarni tahlilga tortish, ijodiy loyiha ishlarini bajarish) mustaqil o'qish faoliyatini tashkil etishni rivojlantirishga qaratilgan axborot–ta'lim muhiti (e–learning) sharoitida ta'limning amaliy yo'nalganligini ta'minlash hamda spiralsimon tamoyil asosida o'qitish, fikr–mulohaza yuritishning metodik, pedagogik, psixologik xususiyatlari, noan'anaviy ta'lim shaklidan samarli foydalanishning mazmun, usul, vositalarini ishlab chiqish jarayoni orqali o'qitish metodikasi virtual reallik qonuniyatlariga asoslangan audio va vizual materiallarni kompyuter imitatsiyasi orqali tasavvur qilish ko'nikmalarini (modellashtiruvchi, o'rgatuvchi 3D animatsiyalar, virtual stend va laboratoriyalar)

dan foydalanib rivojlantirishga oid ilmiy–metodik tavsiyalar hamda 10–11–sinf o'quvchilarning ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida o'qitish jarayonida kreativ fikrlash ko'nikmasini baholash mezonlari, o'quv topshiriqlar tizimi, o'qitishda qanday metod, usul va texnologiyalardan foydalanish muhimligi statistik tahlil jarayonida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Adabiyotlar:**

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgasha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz), 2019 yil 29 aprel

2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016.14-b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning asosiy poydevoridir. – Toshkent, 2021. 77-b.

4. Pirnazarova A. Tarbiya fanini o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va unda ta'lim va tarbiyaning uzviyligi: tarbiya fanini o'qitishda didaktik o'yinlar//Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi 2022. 77-78b.

5. Piaje J. Glavnie cherti logiki rebenka (1924)// Jan Piaje: Teoriya, eksperimenti, diskussii/Pod red. L.F. Obuxovoy i G.V. Burmenskoy. M., 2001.

6. Sapayev V. Tarbiya fanini o'qitishning ayrim dolzarb masalalari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E) ISSN: 2181-1784 www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(8), August, 2023

7. Axmedova M.E.Pedagogika nazariyasi va tarixidan seminar mashg'ulotlar– O'quv qo'llanma. T.: Noshir 2011.136-b.

8. Axmedova M.E.va boshq. Umumiy pedagogika. T.: Darslik. 2024 yil. 390 b

9. Ibroximov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tug'usi. –T.: O'zbek., 1996. 229-b.

10. Ro'zieva D.I. Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish. –T.: Fan. Monografiya. 2007. 131-b.

**РЕЗЮМЕ**

Maqolada 10-11-sinflarda tarbiya fanini o'qitishda o'qituvchilarning darslarda o'quvchilarda ijtimoiy faol milliy g'urur, vatanparvarlik kompetentsiyasini mediatexnologiyalar asosida rivojlantirish metodikasi hamda pedagogik texnologiya, interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va kreativ fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

**РЕЗЮМЕ**

В статье в преподавании науки об образовании в 10-11 классах использованы методы учителя по развитию социально активной национальной гордости, патриотической компетентности учащихся на основе медиатехнологий и педагогической технологии, интерактивных методов и обучающих игр, современных информационных и коммуникационные технологии, которые помогут учащимся мыслить самостоятельно, расширить сферу творческих исследований и творческого мышления, связать изученное на занятиях с жизнью, повысить их интерес.

**SUMMARY**

In the article, in the teaching of the science of education in the 10-11th grades, teachers' methods of developing socially active national pride, patriotic competence in students based on media technologies and pedagogical technology, interactive methods and educational games, modern information and communication technologies. the ideas that will help students to think independently, to expand the scope of creative research and creative thinking, to connect what they learned in classes with life, and to increase their interest.